

## **BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QISH SURATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR HAMDA O'QUVCHILARINING O'QISH SURATINI OSHIRISH METODLARI**

*Samarqand viloyati, Paxtachi tumani*

*19-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf*

*Ġaybullayeva Xumora Habibullayevna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini oshirishga qo'yilajak talablar va ularning ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, o'quvchilarning o'qish suratini oshirishda foydalaniluvchi metodlar haqida ma'lumotlar to'plangan.

**Kalit so'zlar:** *nutq o'stirish, Syujetli, savod o'rgatish, mukammal tarbiya, badiiy asar, badiiy til.*

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq Ilm-fanga katta ehtibor bilan qaragan va uni rivojlanishga xarakat qilgan. Ibn Sino, Beruiiy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar ilm—fanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos xurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siklar bo'lmasin o'z farzandlarini savodli bo'lishini orzu qilganlar. Farzandlarini yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga sabokq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama yetuk, komil insonlar qilib, milliy istiqlol g'oyalariga sodiqlik ruhida, ajdodlarimiz mahdaniy mehrosiga hurmat, mustaqillikning qadriga yetish, uning yutuqlarini mustahkamlash ruhida tarbiyalashda ona tili ta'limi sohasining o'rni beqiyosdir chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish darslarida inson va uni o'rab turgan tabiat, kishilar o'rtasidagi munosabatlar haqida bilim oldilar,

tafakkurlarini boyitadilar. “... har qaysi millat yoki xalqni mahnaviyati bugungi hayoti va taqdirini, o’sab kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shakshubxasiz xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”, deb takidalydi.

O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov Yurtboshi “ta’lim – tarbiya” tizimidagi islohatlar boshlangan dastlabki yillarda men Jahon tajribasi hayotda o’zini ko’p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvofaqiyatli ravishda amalga oshirsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma’nodagi “portlash effekti”ga, yaxshni yangi ta’lim modelining kuchli samarasiga erishamiz”- degan fikrni bildirganliklarini “Yuksak mahnaviyat – yengilmas kuch” asarida yana bir bor qayd etganlar[1]. Nutq o’stirish: lug’atni boyitish, so’z birikmasi, gap, bog’lanishli hikoya tuzish. Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo’yish, yanga urganilgan tovushni unli va undoshga kiritish, yangi harfni ilgari o’rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va xokazo. O’rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovushni ajratish, yangi harf bilan tanishtirish, mashqidan tashqari barcha ish turlaridan foydalaniladi, shuningdek, qo’shimcha so’zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o’qish va tahlil qilishga, ko’rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish kartonn, magnit doskasi, abak, sirli mato, rasmlar va b.) nutq o’stirishga, o’yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o’rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniladi. Birinchi uchragan so’zlar bilan ishlash: ochiq bo’g’in har bir undosh bilan tuziladi va o’qiladi, yopiq burin esa unli bilan tuzilgan ochiq bo’g’inni o’qib keyingi undosh o’qiladi va so’z to’liq o’qiladi. Yangi so’z urg’usi quyilgan holda beriladi, bu uni o’qishga, bug’inlab o’qishdek sintetik o’qishga (so’zni butunligicha o’qishga) yordam beradi. Yangi so’zni doskada katta bosma harflar bilan yozish, o’quvchilarga o’qitish tavsiya qilinadi. So’z shivirlash bilan o’qiladi, kesma harf bo’g’in bilan yoziladi[2].

Syujetli (rasmning asosiy mazmunini bildiradigan) rasimga qarab o'qituvchi yordamida, uning yo'llovchi suroqlari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va analiz qilish. Yangi bo'g'in, so'z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so'zni doskada va daftarda «yasash»ning ahamiyati juda katta. O'qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko'p bo'lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o'qish shunchalik ongli, qiziqarli bo'ladi, malaka puxta shakllantiriladi. Bola endigana o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, hatto, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muximdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatchop (o'qiyotgan betni belgilab quyish uchun kitob ichiga solib quyiladigan qog'oz yoki lentacha) va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish ko'nikmasi sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'irilashni talab qilish bilan xam erishiladi[3]. O'quvchilar bu talabni qizg'anib bajaradilar, shu yo'l bilan ularda darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi.

Mukammal tarbiyali inson boshqalarga hech bir ozor yetkazmaydi, takabburlik qilmaydi, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramaydi, yolg'on so'zlamaydi, rostgo'y bo'ladi. O'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular yuzli, shirin so'zli va xushmuomala bo'ladi. Va'dasiga vafo qiladi, omonatga xiyonat qilmaydi. Ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan o'zini saqlaydi. Ota-onasining hurmatini bajo keltiradi. Ularni o'zidan rozi qilishga sa'y-harakat qiladi. Qarindosh-urug'laridan aloqasini uzmaydi, ularga mehr-u muhabbatli bo'ladi, qo'shnilarini ranjitmaydi, ular bilan yaxshi murosada bo'ladi. Yomon yo'llardan, yaramas ishlardan, nojo'ya harakatlardan o'zini saqlaydi. Mana shularga o'xshagan go'zal xislatlar mukammal tarbiyali insonda mujassam bo'ladi. Inson komillikka yetishi uchun kattalarning pand-nasihatlariga astoydil e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. Bolalar adabiyoti fani yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Bugungi mustaqillik davrida bu fanga intilish, qiziqish, o'rganish, o'zlashtirish yanada oshdi. Shunday ekan, kichkintoylarga atab yoziladigan har qanday badiiy

asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim. Faqat chinakam badiiy asarlargina bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu talablarga javob bera oladi[4]. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyoti bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy „Mahbub-ul qulub“ asarida tilni „ko'ngil xazinasining qulfi“, deb ta'riflaydi, kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so'zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Karimov “Yuksak mahnaviyat yengilmas kuch” Toshkent, “Ma'naviyat” nashriyoti, 2008 yil, 86 bet.
2. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent:O'qituvchi.1985.
3. Ashrapova T. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi», 1984.
4. Matchonov S., G'ulomova X. Ona tili darslarida nutq o'stirish. //Boshlang'ich ta'lim. 2004. No2.